

BOSHLANG'ICH TA'LIM TALABALARINING KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA PEDAGOGIK QOBILYATLARNI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI

Kalandarova Fazilat Toxirovna

*University of Business and Science nodavlat oliy ta'lim muassasasi Ijtimoiy
gumanitar fanlar fakulteti Pedagogika va psixologiya kafedrası o'qituvchisi
kalandarovafazilat3@gmail.com*

Annotatsiya: Bugungi kunda o'qituvchilik eng ma'suliyatli kasblardan biridir. Shu boisdan xam ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim talabalarining kasbiy faoliyatga tayyorlashning ahamiyatiga alohida urg'u qaratilib, ularni tashkil etishga qaratilgan masalalar, kasbiy kompetensiyalarga qo'yiladigan talablar, umummadaniy kompetensiyalarga ega bo'lishi, qobilyatlar, pedagogik qobilyatlar haqida atroflicha ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, faoliyat, kasbiy faoliyat, qobilyat, pedagogik qobilyatlar, malaka talablari, bilim, ko'nikma, malaka, rivojlantirish.

ЗНАЧЕНИЕ ФОРМИРОВАНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ УМЕНИЙ В ПОДГОТОВКЕ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ ШКОЛ К ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация: Сегодня педагог – одна из самых ответственных профессий. По этой причине в данной статье особое внимание уделяется важности подготовки учащихся начальных классов к профессиональной деятельности, представлена подробная информация по вопросам, направленным на ее организацию, требованиям к профессиональным компетенциям, общекультурным компетенциям, способностям, педагогическим способностям.

Ключевые слова: начальное образование, деятельность, профессиональная деятельность, способности, педагогическое мастерство, квалификационные требования, знания, умения, компетентность, развитие.

THE IMPORTANCE OF FORMING PEDAGOGICAL SKILLS IN PREPARING PRIMARY EDUCATION STUDENTS FOR PROFESSIONAL ACTIVITY

Abstract: Today, teaching is one of the most responsible professions. Therefore, this article focuses on the importance of preparing primary school students for professional activity, and provides detailed information on issues related to their organization, requirements for professional competencies, the acquisition of general cultural competencies, abilities, and pedagogical skills.

Keywords: primary education, activity, professional activity, ability, pedagogical abilities, qualification requirements, knowledge, skills, competence, development.

KIRISH

O'qituvchilar bugungi kunda nafaqat fan o'rgatuvchi, balki ko'nikma va kasbiy bilimlar olamiga yo'l boshlovchi insonlardir. Zero birinchi prezidentimiz I.A.Karimov, - Dunyo imoratlari ichida eng ulug'i maktab bo'lsa, kasblarning ichida eng sharaflisi o'qituvchilik va murabbiylikdir, deb bejiz aytmaganlar.

Murabbiy! Bu so'zni eshitgan xar qanday insonni ko'z o'ngida, ilk savodini chiqarib, qo'lga qalam tutqazgan ustozni gavdalanadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi boshqa pedagoglardan bolajonliligi, bolalar ruhiyatini tushuna olishligi va albatta mukammal darajada tarkib topgan pedagogic qobilyatlari bilan ajralib turadi. Bugungi kunda boshlang'ich ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ta'limda taxsil olib, pedagogik faoliyatni yo'lga qo'yishning o'ziga yarasha zaruriy talablari mavjud bo'lib, ularni talabalar o'qish jarayonida o'zlashtiradilar va egallab mutaxassisga aylanadilar.

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining (2020 yil 23 sentyabr) 5-bobida o'qituvchilarning huquqiy maqomi belgilangan. Bunda o'qituvchining chuqur kasbiy tayyorgarlikka, ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega bo'lishi, ta'lim oluvchilarning huquqlariga rioya qilib, kafolatlangan ish sharoitidan foydalanishlari, o'quv dasturlarini yaratishda mualliflik dasturlarini ishlab chiqarib olishi, ta'lim-tarbiya vositalarini erkin tanlash, innovatsiyalar ishlab chiqib amaliyotga joriy qilishlari belgilab qo'yilgan. Mazkur Qonunda ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmatini hurmat qilish, o'quv mashg'ulotlarini axborotkommunikatsiya texnologiyalari yordamida sifatli tashkil etish, o'z malakasini muntazam ravishda oshirib borish, tibbiy ko'rikdan o'z vaqtida o'tish kabi majburiyatlari ham ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 16 fevraldagi 25-sonli "Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga qo'yiladigan Davlat talablari" Qarorida boshlang'ich sinf o'qituvchilar uchun malakaviy talablar belgilangan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Oliy ta'lim tizimi standartlarida boshlang'ich ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar quyidagicha tasniflanadi:

Bitiruvchi quyidagi umummadaniy kompetensiyalarga ega bo'lishi lozim:

- Shaxsiy o'sishga intilishni shakllantirish va ob'ektiv baholash, shuningdek, ta'lim oluvchilarning intellektual rivojlanish darajasini oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- ijtimoiy va kasbiy vazifalarni hal etishda umumkasbiy va mutaxassislik fanlarning asosiy qoidalari va metodlaridan samarali foydalana olish;

- ona tilida o'z fikrlarini tizimli va erkin bayon etish, ilmiy matnlar bilan ishlash, ommaviy nutq so'zlash uchun ona tili va chet tillaridan birida yozma va og'zaki nutq ko'nikmalarini egallaganlik;

- axborotni olish, saralash, saqlash va qayta ishlash metod, usul va vositalaridan foydalanish va mediasavodxonlik; global kompyuter tarmoqlar bilan ishlash ko'nikmalariga egalik.

- ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish, ilmiy bilish yutuqlariga erishish tamoyillarini anglash;

- gigiena, mehnat muhofazasi va tashqi ta'sirlardan himoya qilish qoidalari talablariga muvofiq, sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishga qobiliyatlilik.

Demak, bulardan ko'rinib turibdiki, bu talablarni bajarishda albatta bo'lajak pedagoglarga mahorat, qobiliyat va malaka va ko'nikmalar zarur bo'ladi.

Oliy ta'limda boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari, "Pedagogik mahorat" fanini 4-kursda o'rganadilar. Buning natijasida esa ular kasbiy qobiliyatlarga xos bo'lgan barcha aloqadorliklarni aynan shu fanni o'zlashtirish davomida tadbiq etadilar.

Qobiliyat – odam psixikasining eng muhim xususiyatlaridan biri bo'lib, bu xususiyatlarni xaddan tashqari keng to'ldirish imkoni oqibatida qandaydir bir qobiliyatning nisbiy zaifligi, hattoki shunday bu qobiliyat bilan hammasidan ko'ra

bir-biri bilan chambarchas bog'liq faoliyatning muvaffaqiyatli bajarish imkoni aslo yo'q emas.

Qobiliyat bilimdan farq qiladi. Bilim – bu ilmiy mutolaalar natijasidir, qobiliyat esa insonning psixologik va fiziologik tuzilishiga xos bo'lgan xususiyatdir. Qobiliyat bilim olish uchun zaruriy shart-sharoit yaratadi, shu bilan birga, u ma'lum darajada bilim olish mahsulidir. Umumiy va maxsus bilimlarni o'zlashtirish, shuningdek, kasbiy mahoratni egallash jarayonida qobiliyat mukammallashib va rivojlanib boradi. O'quv jarayonlardagi amaliy, seminar mashg'ulotlar, malakaviy va pedagogik amaliyotlar davomida olingan bilimlar bevosita qobiliyatlar shakllanishi uchun asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Qobiliyatga yaqinroq turadigan tushunchalar ko'nikma va malakalardir. Ko'nikmalar – o'qituvchining kasbiy faoliyati jarayonida hosil qilingan tajriba va bilimlar asosida bajariladigan ishning mukammal usuli. Malakalar – o'qituvchining ongli faoliyatni bajarishi jarayonida hosil qilingan kasbiy intellektual faoliyatning avtomatlashgan komponentlari yig'indisi. Qobiliyatlar bilim, ko'nikma va malakalarda aks etmaydi, balki ularni egallash dinamikasida namoyon bo'ladi. Faoliyat uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayonida yuzaga chiqadigan farqlar qobiliyatlar to'g'risida mulohaza yuritish imkonini beradi.

Demak, shaxsniig faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan, bilim ko'nikma va malakalarni egallash dinamikasida yuzaga chiqadigan farqlarda namoyon bo'ladigan individual psixologik xususiyati qobiliyatlar deyiladi. Ushbu xususiyatni aniqlash uchun ba'zi bir omillarni tahlil qilish maqsadga muvofik:

a) shaxsning muayyan sifatleri yig'indisi belgilangan vaqt oralig'ida egallagan faoliyati talablariga javob bersa-unda mazkur faoliyatga nisbatan qobiliyati mavjuddir;

b) inson shunday holatlarda faoliyat talabiga javob bera olmasa-psixologik sifatlar, ya'ni qobiliyatlar mavjud emasdir (juda zaifdir).

Lekin xususiyatli shaxs ko'nikma va malakalarni egallay olmaydi, degan ma'no anglatmaydi, biroq ularni egallash vaqti cho'zilib ketadi, xolos.

Shunday qilib, qobiliyatlar individual psixologik xususiyatlar bo'lishi bilan birga:

a) ularni shaxslarning mavjud boshqa xususiyatlariga, aqliy sifatlarga, xotira xislatlarga, xarakter fazilatlariga, hissiy kechinmalariga va boshqalarga qarama-qarshi qo'yish mumkin emas;

b) shuningdek, qobiliyatlarni shaxsning mazkur xususiyatlari bilan qatorga qo'yish, ularni ayniylashtirish xam nuqsonlarni keltirib chiqaradi. Shuni ta'kidlash joizki, mulohaza bildirilgan sifatlardan ba'zi biri yoki ularning yig'indisi faoliyat talablariga javob bera olsa yoki ularning ta'sirida vujudga kelsa, u holda shaxsning mazkur individual xususiyatlarini qobiliyatlar deb atash imkoniyati tug'iladi.

Pedagogik qobiliyat – bu qobiliyat turlaridan biri bo'lib, kishining pedagogik faoliyatga yaroqliligini va shu faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug'ullana olishini aniqlab beradi.

Pedagogik psixologiyada o'qituvchilik faoliyatida pedagogik qobiliyatlarning tutgan o'rnini ilmiy izohlab berishga oid samarali tadqiqotlar olib borilgan.

Yirik olim F.N.Gonobolin pedagogik qobiliyatlarni quyidagi turlarga ajratishni taklif etadi:

- 1) didaktik qobiliyatlar;
- 2) akademik qobiliyatlar;
- 3) perseptiv qobiliyatlar;
- 4) nutq qobiliyatlari;
- 5) tashkilotchilik qobiliyati;
- 6) avtoritar qobiliyatlar;
- 7) kommunikativ qobiliyatlar;
- 8) pedagogik xayolot;
- 9) diqqatni taqsimlay olish qobiliyati.

F.N.Gonobolin pedagogik qobiliyatlarni tarkib toptirish bosqichlari, xususiyatlari va xossalari to'g'risida mukammal ma'lumotlar beradi. Ta'lim va tarbiya jarayonini takomillashtirishda pedagogik qobiliyatlarning roli tajriba materiallariga asoslanib sharhlab beriladi.

Kasbiy-pedagogik faoliyatning muvafaqqiyatli amalga oshishi ko'p jihatdan pedagogning maxsus pedagogik qobiliyatlarni egallaganligiga bog'liq: T.I.Gavakov pedagogik qobiliyatlarni quyidagi tarzda guruhlashtirishni taklif etadi: obyekt(ta'lim oluvchilar)ni his eta olish; kommunikativ (kishilar bilan aloqa o'rnatish, samimiylik, muloqotchanlik); pertseptiv (kasbiy etuklik, empatiya, pedagogik intuitsiya); shaxs dinamizmi (irodaviy ta'sir ko'rsatish va mantiqiy ishontirish qobiliyati); emotsional barqarorlik (o'z-o'zini boshqara olish qobiliyati); kreativ (ijodiy ishga qobiliyatlilik).

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Maxsus qobiliyatlar ham o'qituvchining o'rgatuvchilik, ham tarbiyaviy ishiga taalluqlidir. O'qituvchining o'qitish, o'qish va o'rgatishga doir qobiliyatlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- o'rganiladiganlarini ko'ra olish va his eta olish qobiliyati;
- o'quv materialini mustaqil tanlay olish, ta'limning samarali metodlari va maqbul vositalarini aniqlay olish;
- o'quv materialini tushunarli bayon eta olish, uning barcha ta'lim oluvchilar uchun tushunarli bo'lishini ta'minlash;
- ta'lim oluvchilarning individualligini hisobga olish bilan bog'liqlikda o'qitish jarayonini tashkil eta olish qobiliyati;
- o'quv jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalana olish qobiliyati;
- ta'lim oluvchilarning har tomonlama rivojlanishini tashkil etish qobiliyati;
- o'zining pedagogik mahoratini takomillashtirish qobiliyati;
- o'zining shaxsiy tajribasini boshqalarga uzatish qobiliyati; mustaqil ta'lim olish va o'z-o'zini rivojlantirishga qobiliyatlilik.

Pedagogika va psixologiya sohasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarga asoslanib, bizningcha, o'qituvchining pedagogik qobiliyatlarini quyidagicha klassifikatsiya qilish mumkin

1. Didaktik qobiliyat
2. Akademik qobiliyat
3. Perseptiv qobiliyat
4. Nutqiy qobiliyat
5. Tashkilotchilik qobiliyati

6. Obro'ga ega bo'lishlik qobiliyati.
7. Kommunikativ qobiliyatlar
8. Psixologik tashhis (diagnoz)ga doir qobiliyatlar.
9. Diqqatni taqsimlash qobiliyati
10. Konstruktiv qobiliyat
11. Gnostik qobiliyat

Boshlang'ich ta'lim talabalari, pedagogik qobiliyatlarni har tomonlama o'rganish qobiliyatlar shaxsning aql-idroki, his-tuyg'usi va iroda sifatlarining namoyon bo'lishidan iborat ekanligini ko'rsatdi. Pedagogik qobiliyatlar umumiy qobiliyat: masalan, adabiy va ilmiy ijod qilish, loyihalash qobiliyatlari bilan bog'langan. Ular o'qituvchi faoliyatining samaradorligini oshiradi. Bunday o'qituvchilar o'z o'quvchilarini ana shu faoliyatga jalb qila borib, ularga ta'lim va tarbiya berishda katta muvaffaqiyatlarga erishmoqdalar.

XULOSA

Ta'lim-tarbiyaning amaliy faoliyatdagi boshlang'ich sinf o'qituvchilariga qo'yiladigan umumiy talablar o'qitish mahorati, tarbiyalash mahorati, shaxsiy sifatlar, bilimlarni nazorat qilish va xolisona baholashni o'z ichiga olishi belgilab qo'yilgan.

Bugungi kunda oliy ta'limda ta'lim-tarbiya sifatini ko'tarish va o'qituvchi maqomini yuksaltirish yo'lida turli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlar o'qituvchilarga qanchalik qulay sharoitlarni yaratsa, o'z ishlariga shunchalik majburiyat va mas'uliyat bilan yondoshishni talab etadi. Talabalar, ayniqsa pedagogika sohasida tahsil olayotgan talabalarga, o'qituvchilik kasbi haqida va bu kasbning barcha e'tibor qaratish kerak bo'lgan jihatlariga to'xtalar ekanman, pedagogik qobiliyatlarning aksariyat qismi, aynan talabalik davrida tarkib toptirishiga xarakat qilaman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 16 fevral 25-sonli "Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori

3. Азизходжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат. Ўқув қўлл. -Т.: Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси, 2006.
3. Kalandarova Fazilatxon Toxirovna. (2024). O'qituvchilik Faoliyatida Deontologik Tayyorgarlikni Oshirish. Miasto Przyszłości, 51, 146–148. Retrieved from <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/4432>
4. Kalandarova F.T. KOMPETENTSIYAGA ASOSLANGAN YONDASHUV BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING DEONTOLOGIK KOMPETENTSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSI SIFATIDA. <https://www.iupr.ru/5-120-2024>
5. Kalandarova, F. (2024). O'QITUVCHILARNING KASBIY KOMMUNIKATIV QOBILYATLARINI RIVOJLANTIRISHGA DEONTALOGIK YONDASHUV. Namangan Davlat Universiteti.